

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ACHILOV NURIDDIN ABDUGAFFOROVICH

**AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTI VOSITASIDA
O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING
PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Achilov Nuriddin Abdugafforovich

Al-Hakim at-Termiziy ta’limoti vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish..... 5

Ачиллов Нуриддин Абдугаффорович

Совершенствование педагогической системы духовно-нравственного воспитания учащихся посредством учения аль-Хакима ат-Тирмизи..... 33

Achilov Nuriddin Abdugafforovich

Improving the pedagogical system of the spiritual and moral education of pupils through the teaching of al-Hakim at-Termizi..... 67

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 72

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ACHILOV NURIDDIN ABDUGAFFOROVICH

**AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTI VOSITASIDA
O'QUVCHILARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING
PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Ped268 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdpi.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ro‘ziyeva Dilnoz Isomjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Qutlug‘ Bekmurodovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12. Ped.11.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “10”-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy. Tel.: (376) 221-93-56, faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№32 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1-A uy. Tel.: (376) 221-93-56, faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “25”-may kuni tarqatildi (2026-yil “25”-maydagi №32-raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.A.Kuldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

M.K. Ismailov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., (PhD) dotsent.

O‘.N. Sultanova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda buyuk allomalar va mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy merosni xolisona o'rganish, ularning asarlaridagi millat va jamiyat bardavomligini tarannum etuvchi g'oyalarni tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. IX–XII va XIV–XV asrlardagi sharq uyg'onish davrida yashab faoliyat yuritgan, ulug' allomalar qoldirgan ilmiy ma'naviy meros nafaqat Sharq dunyosida, balki dunyo ma'rifatparvarligiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi. Shu maqsadda butun dunyoda yurtimizni ma'rifat ziyosini tarqatgan muqaddas makonlardan biri sifatida o'rganish va allomalar ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda jamiyat manfaatini himoya qilish, inson kamolotini ko'zlash, uni sharaflash, ilm-ma'rifat targ'iboti uchun mutafakkirlar hayoti va ijodini yoshlar kamoloti yo'lida safarbar etishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda, al-Hakim at-Termiziyning ilmiy merosi dunyoning turli davlatlari – Yevropa, Osiyo, Amerika qit'asi mamlakatlari xalqlarining tillariga tarjima qilingan bo'lib, ma'rifat, ilmga tashnalik, shaxs taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati, vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglashning takomillashib borishi, milliy madaniy-tarixiy an'analar va xalqimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish hamda ularni o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi va ularning har tomonlama rivojlanishi, shuningdek intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash yo'nalishida yuqori natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, yosh-avlodga mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy qarashlarini izchil o'rganish sohasida ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Chunki, yosh-avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirishlari, ularning chinakam yuksak madaniyat va intellektual salohiyatli ma'rifat egasi bo'lishlari davlat siyosatidagi ustuvor masala sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda buyuk allomalarimizning ilmiy merosini tadqiq etish hamda ular mazmunidagi ma'naviy-axloqiy qarashlaridan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “o'quvchi-yoshlarni intellektual, jismoniy va ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni fuqarolik tuyg'usi, vatanparvarlik, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash”ga¹ yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada xalqimizning boy ilmiy-ma'naviy merosi va bebaho qadriyatlari asosida milliy tarbiya, milliy madaniyat, ilm-fan, texnika va ilg'or texnologiyalarning yutuqlari asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimini shakllantirish hamda shu maqsadga xizmat qiluvchi buyuk allomalar ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash zaruratini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son “Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Jahonda al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlari quyidagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalarida, xususan, London universiteti Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi SOAS (Buyuk Britaniya), Indiana universiteti (AQSh), Jan Moulin Lion III universiteti (Fransiya), Utrext universiteti (Niderlandiya), Harvard universiteti (AQSh), Michigan universiteti (AQSh), Istanbul universiteti (Turkiya), Frankfurt universiteti (Germaniya)da olib borilmoqda.

Al-Hakim at-Termiziy hayoti, asarlari va uning sufizm rivojidagi o‘rni batafsil o‘rganilgan va allomaning asarlari ro‘yxati, valiylik nazariyasi, gnoseologiya va ichki ruhiy asoslari, shuningdek, Ibn Arabiy va al-G‘azoliyga ta‘siri tahlil qilingan (London universiteti Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi SOAS, Buyuk Britaniya); al-Hakim at-Termiziyning “Buduvvu sha‘n Abu Abdulloh” asari klassik adabiyotidagi ruhiy avtobiografiyaning birinchi namunasi sifatida, shuningdek, tadqiqotda allomaning hayoti, faoliyati va ma‘naviy merosi tahlil qilingan (Indiana universiteti, AQSh); allomaning bir necha asarlari tarjimai amalga oshirilgan va tadqiqotlar Qur‘onning intermadaniy talqinlariga qaratilgan bo‘lib, sufiylik ta‘limotini dinlar o‘rtasidagi aloqalarda tasniflangan (Jan Moulin Lion III universiteti, Fransiya); alloma merosi bo‘yicha so‘ngi tadqiqotlar sharhlangan, uning “Navodir al-usul” asari tahlil qilingan (Utrext universiteti, Niderlandiya); at-Termiziyning “hikmat” tushunchasi boshqa mutafakkirlar bilan solishtirib, uni “ilm”, “ma‘rifat”, “aql” va “fiqh” kabi epistemologik tushunchalarga bog‘lab tahlil qilingan (Harvard universiteti, AQSh); allomaning valiylik nazariyasi, gnoseologiya (ma‘rifatparvarlik), “avliyo” va “hikmat” tushunchalari tasniflangan va unda allomaning “Siyrat al-avliyo”, “Navodir al-usul” va “Ma‘rifat ul-asror” asarlari tahlil qilingan (Michigan universiteti, AQSh);

Hakim Termiziyning 80 dan ortiq asarlari saqlanib qolganligi va uning “Al-aql val-havo” (“Aql va kibr”), “Ar-radd ala-ar-rafiza” (“Rofiziylar inkori”) asarlari nashr qilingan (Istanbul universiteti, Turkiya); at-Termiziyning hayoti, asarlari, qo‘lyozmalar hamda insonning yaratilishi, hayot yo‘li bosqichlari, tabiati va uning a‘zolari, nafs, ruh, aql va idrok, qalb tushunchalari tahlil qilingan (Frankfurt universiteti, Germaniya).

Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti asosida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar bugungi pedagogika fani uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda: allomaning “qalb tarbiyasi”, “ilm va amal birligi”, “nafsni poklash” kabi g‘oyalari zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ichki mas‘uliyat, vijdoniy nazorat va ongli axloqiy g‘oyalarni shakllantirish; mazkur ta‘limot negizida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqish, uni kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish va milliy-ma‘naviy kompetensiyalar tizimini yaratish; al-Hakim at-Termiziy qarashlari asosida tarbiyaviy texnologiyalar, jumladan, refleksiv mashg‘ulotlar, axloqiy vaziyatlar tahlili va o‘zini o‘zi baholash usullarini ishlab chiqish; raqamli ta‘lim muhitida ma‘naviy immunitet va axloqiy madaniyatni shakllantirish, shuningdek, tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholash mezonlarini aniqlash; al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti asosida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda zamonaviy ta‘lim tizimini takomillashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosi E.Rtveladze, M.Hasaniy, G‘.Jo‘rayeva, J.Omonturdiyev, Sh.Boboxonov, A.Irisov, Sh.Safarov, T.Annayev, S.Tursunov, A.Isayev, S.Ergasheva, O.Isayev, A.Xolmirzayev, M.Azimov, M.Kenjabek, H.Homidiy, A.Abdullayev, B.Murtazayev, R.Abdullayev, Z.Choriyev, J.Mirzo, U.Uvatov, Z.Isoqova, I.Usmonov, Q.Qodirov, A.Samiyev, A.Qodirova, L.Xayitovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, shayx M.Yusuf, A.Shoshiy, A.Tursunov, J.Cho‘tmatovlar tomonidan alloma asarlarining o‘zbek tiliga o‘g‘irilishi uning ijodini targ‘ib qilishda katta ahamiyatga ega.

MDH olimlaridan M.Ye.Masson, V.V.Bartold, A.A.Semenov, G.A.Pugachenkova, Z.A.Arshavskayalar tomonidan al-Hakim at-Termiziy ilmiy ma‘naviy merosini o‘rganishga katta e‘tibor qaratib, mutafakkirning hayoti va ijodi hamda alloma yodgorligini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijiy olimlardan A.Arberri, P.Nvia, A.Aliy, S.Sviri, S.Dajoni, N.Xir, A.Palmer, B.Radtke, J.Kane, L.Massinyon, Y.Markuyet, X.Fuad, G.Gobillot, A.Furat, U.Yahyo, H.Zaudan, M.Juyushiy, A.Umar, V.Ahmad, B.Fattoh, D.Knish, I.Xudoyorlar tomonidan allomaning ilmiy merosini o‘rganish asosida ko‘p jildli asarlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va boshqa tadqiqot ishlari natijalari e‘lon qilingan.

Al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari asosan qadimshunoslik, tarixshunoslik, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, sharqshunoslik va tasavvufshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan, biroq, al-Hakim

at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish ilmiy-nazariy jihatdan to'liq tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Termiz davlat universitetining 2025-2027-yil rivojlantirish strategiyasining 3.3. "Ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion transformatsiya" yo'nalishi 2-bandining "Ilmiy tadqiqotlarni hududiy va sohaviy muammolarga yo'naltirish" mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha nazariy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

al-Hakim at-Termiziy ta'limoti asosida ma'naviy-axloqiy kompetentlik mazmunini aniqlashtirish;

shaxsning ichki dunyosini al-Hakim at-Termiziy ta'limoti asosida pedagogik talqin qilish, odob-axloq nazariyasi, qalb va nafs quvvatiga oid komponentlarni aniqlashtirish;

al-Hakim at-Termiziy ta'limoti asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasini takomillashtirish;

Hakimiya ta'limotida ustoz-shogird tiziminining akmeologik bosqichlarini aniqlashtirish;

al-Hakim at-Termiziy merosi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning didaktik modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Farg'ona viloyatlari umumta'lim maktablarining VI-IX sinflaridan 508 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod, vosita va yo'llari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida nazariy (statistik-tahlil, qiyoslash va taqqoslash), diagnostik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma), test savollari, ta'lim muassasasi rahbariyati va o'qituvchilari bilan suhbatlar o'tkazish, pedagogik tajriba-sinov o'tkazish (tahliliy ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarning samaradorligini aniqlash, diagramma va jadvallarda tasvirlash) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" va "Adab un-nafs" asarlaridagi "bilish-ilm-nafs-axloq" g'oyasiga oid gnoseologik qarashlari pedagogik transformatsiya qilinib, o'quvchilarning ichki intellektual va ruhiy quvvatini faollashtirishga yo'naltirilgan "komplementar tarbiya" mazmuni ilmiy asoslangan;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning aksiologik modeli "ma'rifat" va "riyozat" konsepsiyasiga ko'ra "bilish-ilm-nafs-axloq" g'oyasining pedagogik

qadriyatlar va innovatsion tarbiya texnologiyalari bilan uyg'unligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

ma'naviy-axloqqa erishish bosqichlariga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida at-Termiziyning "irshod" (yo'l ko'rsatish) va "hikmat" uslublarini qo'llash hamda inson ruhiyati va qalb qatlamlari (sadr, qalb, fuod, lub) haqidagi ta'limotining pedagogik interpretatsiyasi orqali o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va komillikka intilish motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik algoritmi (poklanish-shakllanish-yuksalish) ishlab chiqilgan;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni Hakim at-Termiziy asarlaridagi nafs tarbiyasi muolajasi (nafs-qalb-aql)ga ko'ra insonparvarlik, adolat va halollik tamoyillarini milliy o'quv dasturlariga singdirish orqali konseptual jihatdan boyitilgan hamda oila-maktab-mahalla hamkorligida "Hakimiya ta'limoti"ni o'rganishning institutsional-funksional mexanizmlari takomillashtirilgan;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligi "bilish-ilm-nafs-axloq" g'oyasidagi "ilm va amal" mutanosibligiga ko'ra ko'p bosqichli metrik mezon (kognitiv-axloqiy, emotsional-irodaviy, faoliyatli-amaliy) va sifat ko'rsatkichlar (ma'naviy immunitet, qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy empatiya) tizimini ishlab chiqish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hakimiya ta'limoti asosida ustoz-shogird tizimining mazmuni oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Umumiy pedagogika" darsligi hamda "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan;

Hakimiya ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga mo'ljallangan "hakimiya.terzu.uz" nomli veb-sayt yaratilgan;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga mo'ljallangan "Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash" nomli didaktik ta'minot ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga foydalanilgan;

al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga tadbiiq etilgan;

dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik tuzilmasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi asosiy nazariy metodologik hamda umumdidaktik prinsiplarga asoslanganligi, tadqiqotda foydalanilgan nazariy ma'lumotlar va yondashuvlar, metod hamda usullar rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili va uning samaradorligi asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari mosligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilinganligi hamda olingan natijalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy nazariy ahamiyati mas'uliyatlilik, Vatanga sadoqat, tolerantlik, tadbirkorlik, huquqiy madaniyat, irodalilik, innovatsion fikrlash, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mehnatsevarlik komponentlari o'quvchilar shaxsining ta'lim

jarayonidagi faolligi, ma'naviy-axloqiy yetukligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlash, taklif va tavsiya qilingan al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, didaktik modeli, baholash mezonlarining ishlab chiqilganligi, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati al-Hakim at-Termiziy ta'limoti asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi diagnostik, emotsional-axloqiy, reflektiv, faoliyatga asoslangan, qo'llab-quvvatlovchi tarbiyaviy intervensiyalarni dars va darsdan tashqari jarayonlarga integratsiyalash hamda jarayonga metakognitiv texnologiyalarni faol qo'llash orqali olingan natijalardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning sifati va samaradorligini oshirishda, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida mutaxassislik bo'yicha o'quv-metodik manbalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" va "Adab un-nafs" asarlaridagi "bilish-ilm-nafs-axloq" g'oyasiga oid gnoseologik qarashlari pedagogik transformatsiya qilinib, o'quvchilarning ichki intellektual va ruhiy quvvatini faollashtirishga yo'naltirilgan "komplementar tarbiya" mazmunini ilmiy asoslashga oid taklif va tavsiyalar "Umumiy pedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 8-sentabrdagi 03-33-2174-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarida o'qitiladigan pedagogika fanlari mazmunini boyitishga erishilgan;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning aksiologik modeli "ma'rifat" va "riyozat" konsepsiyasiga ko'ra "bilish-ilm-nafs-axloq" g'oyasining pedagogik qadriyatlar va innovatsion tarbiya texnologiyalari bilan uyg'unligini ta'minlash orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Termiz davlat universitetida 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate's employability in Central Asia – TRIGGER" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2025-yil 2-dekabrda 06/12-5023-son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxsning ichki dunyosini pedagogik jihatdan tahlil qilish, uning axloqiy-ruhiy rivojlanish bosqichlarini belgilash va tarbiyaviy jarayonni individuallashtirish imkoniyatlari yanada kengaygan;

ma'naviy-axloqqa erishish bosqichlariga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida at-Termiziyning "irshod" (yo'l ko'rsatish) va "hikmat" uslublarini qo'llash hamda inson ruhiyati va qalb qatlamlari (sadr, qalb, fuod, lub) haqidagi ta'limotining pedagogik interpretatsiyasi orqali o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va komillikka intilish motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik algoritmi (poklanish-shakllanish-yuksalish)ni ishlab chiqishga oid takliflar "Umumiy pedagogika"

yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob‘yekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash – dolzarb pedagogik muammo sifatida ekanligi, ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning tarixiy ildizlari va tasnifi, al-Hakim at-Termiziy ta‘limotining ilmiy tadqiqi, uning vatanimizda va xorijda o‘rganilishi hamda al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning mavjud holati tahlili bayon etilgan.

O‘quvchi-yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi har bir davlatning muhim va asosiy vazifalaridan biri. Bu jarayon faqatgina o‘quv muassasalarida emas, balki oilada, jamoat joylarida ham amalga oshirilishi lozim. Vatanparvarlik nafaqat o‘z mamlakatiga bo‘lgan muhabbat, balki uning tarixini, madaniyatini va an‘analarini hurmat qilishni ham anglatadi. Bu borada Konstitutsiyaning 78-moddasida: “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehru-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida” g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan². Yoshlarni bunday ruhda tarbiyalash orqali ularni kelajakda faol fuqarolar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Jumladan, o‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi va ularning shaxs sifatida rivojlanishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishiga hamda eng asosiy masala ularning hayotda ijtimoiylashuv jarayoniga faol ishtirok etishlariga ko‘maklashadi. Chunki, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash, ularga oila, vatan, tinchlik kabi tushunchalar buyuk ne‘mat ekanligini anglatish, ularni qadrlash, avaylab-asrash, shuningdek, himoyalash tuyg‘usini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Termiziy allomalarining merosi Pedagogika nazariyasi pedagogik ta‘limotlar tarixi uchun alohida ahamiyatga ega hisoblanib, ularni tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Movarounnahr zaminining ilk tasavvuf tariqati – “Hakimiya” tariqatining asoschisi vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr ibn Horun al-Hakim at-Termiziy o‘zining ulkan ilmiy merosi bilan islom dini rivoji va targ‘iboti yo‘lida muhim o‘rin tutadi. Al-Hakim at-Termiziy tanlagan yo‘li ilm, ma‘rifatparvarlik yo‘li bo‘lib, har bir asarida ilmga alohida urg‘u beradi va har bir insonni ilmi bo‘lishga chorlaydi. Alloma yaratgan

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>.

asarlarning ellik beshtasi bizning davrimizgacha bezavol yetib kelgan bo‘lib, ular dunyoning turli xorijiy davlatlari kutubxona, muzey va ilmiy-tadqiqot muassasalarida saqlanmoqda.

Al-Hakim at-Termiziy o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan jahonda juda ham boy meros qoldirgan mutafakkirlarlardan biri. U asosan, axloq, ma’naviyat va insonning ichki dunyosi haqidagi nazariyalarini rivojlantirgan. Uning asarlarida axloqning ahamiyati, odamlarning munosabatlari, o‘zini-o‘zi tarbiyalash va ma’naviy-axloqiy rivojlanish masalalariga katta e’tibor berilgan. Ma’naviyat, axloq va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari barcha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Hozir biz ushbu so‘zlarning mazmun mohiyatini tahlil qilamiz. Ma’naviyat (arabcha – ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doim yonma-yon yuradigan, inson, xalq hamda jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblangan ijtimoiy hodisa³. Ma’naviyat so‘zining mazmuni bugungi kunda faqatgina “ma’ni”, “ma’no”, degan so‘zlar ma’nosida qo‘llanilmaydi. Balki, kishilarni yetuk inson qiladigan, va ularning ongi, qalbi va ruhiyati bilan o‘zaro uzviy bog‘langan. U har qaysi insonda, millat, jamiyat va xalq hayotida hech qanday narsalar bilan o‘lchanmaydigan darajada alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi mamlakatimizda ustuvor hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “bizning ikkita o‘q tomirimiz va ikkita tayanch ustunimiz bor: biri – iqtisodiyot bo‘lsa yana biri – ma’naviyat. Chunki, ma’naviyati buyuk xalqning – iqtisodiyoti ham buyuk bo‘ladi”. Shuningdek, yurtimizda olib borilayotgan ishlarni, yanada yangi va yuksak darajaga ko‘tarish maqsadida 2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”⁴ – deb e‘lon qilindi. Ma‘nan har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson o‘zida iymon-e‘tiqod, mehr-shafqat, vatanparvarlik, do‘stlik, muruvvat, qanoat va sabr-toqat, saxiylik, milliy g‘urur kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim.

Yer sayyorasidagi barcha xalqlarning qadimdan bir-birlarini bilishda, millatlararo ularning bir-birlari bilan o‘zaro muloqotlarida insonning milliy jihatlari alohida qiziqish uyg‘otgan. Qadim zamonlardan eng qadimiy yodgorliklar (arxeologik topilmalar), xalq og‘zaki ijodiyoti (termalar, o‘lanlar, mavsumiy qo‘shiqlar, dostonchilik, baxshichilik), tosh bitiklari (O‘rxun Yenisey bitiklari, Qoyatosh yozuvlar), yozma manbalar (Avesto, Qur‘oni Karim va Hadisu Sharif), tarixchilar, sayyohlar, qomusiy allomalar (Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayhon Beruniy, Mikloxu Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, Herman Vamberi va boshqalar) qoldirgan asarlarida ijtimoiy falsafiy jihatdan ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari joy olgan. Shu maqsadda: “tarixiy, ma’naviy-intellektual, ilmiy merosimizni saqlash va ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini soha mutaxassislariga, o‘quvchi va talabalarga to‘liq ma‘lumot berish, ulug‘ allomalarimiz asarlarini jahon hamjamiyati o‘rtasida keng targ‘ib qilish,

³ Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. [Matn]: lug‘at // Q.Nazarov va b. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. 345-bet.

⁴ Prezident Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisidagi nutqidani. Toshkent, 2024-yil 20-noyabr.

zamonaviy ilm-fanda, ma'naviyat va amaliy tajriba rivojida samarali foydalanish va avlodlarga yetkazish"⁵ masalasi asosiy vazifa qilib belgilangan. Demak, yuqoridagi fikrlarga tayanib, olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya – yosh avlodni ajdodlarimiz merosi asosida ma'nan har tomonlama kamolga yetkazish ularda iymon-e'tiqod, mehr-shafqat, vatanparvarlik, do'stlik, muruvvat, qanoat, saxiylik, va milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish jarayoni.

Ma'lumki, azaldan xalqimiz ta'lim-tarbiya borasida o'ziga xos maktab yaratgan. Shuning uchun, keyingi yillarda pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarning asosiy o'zagini milliy tarbiya, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, madaniyat, umuminsoniy va milliy qadriyatlar va sharq mutafakkirlarining merosi va ularning pedagogik ta'limotlarini o'rganish tashkil etadi. Xususan, tadqiqotchi olimlarimizdan M.Quronov, B.R.Adizov, D.I.Ro'ziyeva, B.X.Xodjayev, A.T.Tilegenov, R.Mamatqulova, M.E.Ismoilovalarning ilmiy-tadqiqot ishlari milliy tarbiya, milliy iftixor, tarixiy tafakkurni modernizatsiyalash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy meros, xalq qo'shiq va dostonlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. M.S.Salayeva, B.X.Karayeva, A.M.Abdumannotov, Q.B.Qodirov, G.K.Zaripova, K.Yu.Qilicheva, G.V.Izbullayeva kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rta asr Sharq allomalarining pedagogik qarashlari yoritilgan bo'lsa, D.A.Axatovning ilmiy tadqiqot ishi XX asr ma'rifatparvar olimlarning pedagogik qarashlariga bag'ishlangan. Ayniqsa, al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" asari hadis va tasavvuf ilmiga oid manba I.S.Usmonov, islom madaniyati manbalarida pedagogik va psixologik fikrlar hamda qarashlar taraqqiyoti nazariyasi Q.B.Qodirov, muhaddis-olimlar ilmiy meroslari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash A.S.Samiyev, al-Hakim at-Termiziy asarlarida psixologik qarashlar A.B.Qodirova, Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi o'rni L.A.Xayitovlarning tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi⁶. Biroq ushbu ishlar mazmunidan shuni anglash mumkinki,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995-son Qarori.

⁶ Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 1998. – 316 b., Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – Buxoro, 2002. – 276 b., Ro'ziyeva D.I. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida milliy itixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007. – 255 b., Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Ped. fanl. dokt. ... diss. avtoreferat. – T., 2016. – 82 b., Tilegenov A.T. Xalq dostonlari vositasida o'smirlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ("Alpomish" dostoni misolida): Ped.fan.nomz. ... diss. – T., 1998. – 140 b., Mamatqulova R. Milliy ma'naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash: Ped.fan.nomz. ... diss. – T.,1995. – 220 b., Исмоилова М.Э. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся средствами народных песен: Дисс... канд. пед. наук. – T., 2007. – 164 с., Salayeva M.S. Muhammad Rizo Ogahiyning ma'rifiy pedagogik qarashlari: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.,1998. – 166 b., Караева Б.Х. Воспитание нравственных убеждений у старшеклассников средствами художественных произведения Захриддина Бабура: Дисс... канд. пед. наук. – T., 2000. – 167 с., Абдуманнотов А.М. Формирование духовно-нравственных понятий у учащихся начальных классов на основе наследия Алишера Навоии (на премере дастана "Хайрат ул-аброр"): Дисс... канд. пед. наук. – T., 2005. –168 с., Qodirov Q.B. Imom Abu Iso Muhammad At-Termiziyning muhaddislik faoliyati va tarbiyaviy qarashlari: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T., 2008. – 141 b., Zaripova G.K. Naqshbandiya tariqatida ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos pedagogik texnologiyasi: Ped. fanl. dokt. ... diss. Avtoreferat. – T., 2010. – 25 b., Қиличева К.Ю. Духовное формирование студентов посредством

yurtimizda jahon ilm-fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ko‘plab allomalarimiz, ayniqsa, qadim Termizdan yetishib chiqqan buyuk siymolarning hayoti va ma‘naviy merosini pedagogik jihatdan har tomonlama tahlil qilish lozimligi tadqiqot muammosi sifatida aks etadi. Shunga tayanib, tadqiqot ishimizning mavzusini “Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish” deb nomladik.

Al-Hakim at-Termiziy diyorumizning eng qadimiy va hamisha navqiron ilmu ma‘rifat markazlaridan hisoblangan Termiz shahrida faoliyat yuritgan buyuk olim, mutafakkir va ma‘naviyat peshvolaridandir. Allomaning ilmiy-pedagogik merosi chuqur insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, uni o‘rganishda Sharq va G‘arb olimlari o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, ilmiy va e‘tiborli tasavvufiy manbalarda bu ulug‘ zotning nomi ehtirom bilan tilga olinadi. Abdurahmon Sulamiy (vafoti 1021-y.), Abu Nuaym Isfahoniy (vafoti 1038-y.), Ali Jullabiy al-Hujviriyy (vafoti 1077-y.), Abdulloh Ansoriy (1006-1088-yy.), Fariduddin Attor (1145-1221-yy.), Abdurahmon Jomiy (1414-1492-yy.), Alisher Navoiy (1441-1501-yy.) va boshqalar ehtirom bilan tilga olib, allomaga quyidagicha ta‘rif beradi. Ilk dastlabki nazariy manbalardan hisoblangan Ali Jullabiy al-Hujviriyyning “Kashf al-mahjub” asarida: “Bishr Abu Abdulloh Muhammad bin Ali at-Termiziy ilm-fanda komil, yetuk va imomlarning ilg‘or peshvosi edi. Ayniqsa, mening qalbim uning tuzog‘iga ilingan edi. Shu sababli ustozim Abulfazl Hasan Xatliy (XI asr): “Muhammad butun olamda tengi yo‘q yagona durdir” – deb aytar edi.

Al-Hakim at-Termiziyning hayoti va ilmiy merosini yurtimizda o‘rganilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qadimshunos olim M.Ye.Masson rahbarligida 1936-1938-yillarda eski Termizda ilk bor olib borilgan tadqiqot ishlari natijasi maxsus to‘plam (1940-1945-yy.)larda nashr etilgan. Bu tadqiqotda asosan, alloma maqbarasining qurilishi, asrlar davomida maqbara atrofida amalga oshirilgan ta‘mirlash ishlari va qurilishlar tarixi aniqlangan. Bundan tashqari, M.Ye.Masson 1960-yilga kelib, al-Hakim at-Termiziy maqbarasi va undagi bitiklarni o‘rganib chiqib, ular (sag‘ana peshtoqi va atrofidagi yozuvlar)ni rus tiliga tarjima qildi (V.V.Bartold va A.A.Semenovlar tomonidan qilingan tarjimalar ham mavjud). Mazkur manbalarning bir butun holda nashr qilinishi mamlakatimiz tarixida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur tadqiqotda maqbara tarixi, undagi yozuvlar tarjimasi bilan birga, allomaning tarjimai holi va ayrim asarlari sharhlab berilgan. Qadimshunos olimlar G.A.Pugachenkova hamda Z.A.Arshavskaya,

учения суфизма в системе высшего образования: Дисс... док. пед. наук. – Т.: 2010. – 240 с., Izbullayeva G.V. Jaloliddin Rumiyning ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta‘lim jarayonida samarali foydalanish: Ped. fanl. b. fals. dokt. ... diss. avtoreferat. – T., 2017. – 24 b., Ahatova D.A. Abdurauf Fitratning ma‘rifiy-pedagogik qarashlari: Ped.fanl.nomz. ...diss. – T., 1999. – 163 b., Usmanov I.C. Al-ҲАКИМ аТ-Термизийнинг «Наводир ал-усул» асари ҳадис ва тасаввуф илмига оид муҳим манба: Тарих фан. номз. дисс... автореф. Тошкент, 2006. – 26 б., Qodirov Q.B. Islom madaniyati manbalarida pedagogik va psixologik fikrlar hamda qarashlar taraqqiyoti nazariyasi: Ped.fanl.dokt. ...diss. – T., 2021. – 291 b., Samiyev A.S. Muhaddis-olimlar ilmiy meroslari vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish: ped.fanl.bo‘yi.fal.dokt. ...diss. – T., 2021. – 120 b., Qodirova A.B. Al-Hakim at-Termiziy asarlarida psixologik qarashlar: psi.fanl.bo‘yich.fal.dokt. ...diss.– T., 2020. – 125 b. //Termiziy allomalar asarlarida yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga oid qarashlarning psixologik asoslari: psi.fanl.dokt. ...diss. – T., 2025. - 256 b., Xaitov L.A. Hakim Termiziy ma‘naviy merosining inson kamolotidagi o‘rni: fal.fanl.bo‘yi.fal.dokt. ...diss. – B., 2021. – 151 b.

E.V.Rtveladze, Z.A.Hakimovlarning ilmiy izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Olimlarning tadqiqot ishlari izchil davom ettirildi, biroq ular faqat qadimshunoslik yo‘nalishida bo‘lib, asosan, maqbara qurilishi tarixiga urg‘u berilgan⁷.

Al-Hakim at-Termiziyni Yevropaga ilk bor tanishtirgan frantsuz sharqshunosi Lui Massinon hisoblanadi⁸. Alloma haqida ilk bora asosli ilmiy tadqiqot yaratgan sharqshunos N.Xir 1947-yilda al-Hakim at-Termiziyning “Kitob bayon al-farq bayn as-sadr val-qalb val fu‘od val lubb” (“Tashqi va ichki bilimlar o‘rtasidagi farqlar bayoni, asl mazmuni: ko‘krak, qalb, nodirlik va lab o‘rtasidagi farqlar bayoni kitobi”) asarini Qoxirada chop ettiradi. Ayniqsa, allomaning diniy-falsafiy va tasavvuf tariqatiga qo‘shgan hissasini o‘rganishda nemis sharqshunosi Bernd Radtke 30 yildan ko‘proq umrini bag‘ishlagan. 2015-yilda AQShda alloma ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlardan biri Ayub Palmer tomonidan amalga oshirilgan. Uning doktorlik dissertatsiyasi “The Social and Theoretical Dimensions of Sainthood in early Islam: Al Tirmidi’s Gnoseology and the Foundations of Sufi Social Praxis” (“Islomda avliyolikning ijtimoiy va nazariy jihatlar: Termiziyning gnesologiyasi va ijtimoiy tasavvufning amaliyotining asoslari”) deb nomlangan. Mazkur tadqiqotda al-Hakim Termiziyning avliyolik va gnoseologiya (bilish nazariyasi) haqidagi ta‘limoti tahlil qilinadi. Buning uchun Termiziyning asarlari berilgan va uning g‘oyalari M.Fukoning episteme va diskurs metodologiyasi yordamida tahlil qilingan. Ushbu dissertatsiya Termiziyning tasavvufdagi avliyolik ta‘limotiga va islomning dastlabki davridagi mistik tafakkurning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha yangi nuqtai nazarlarni taklif etadi. Tadqiqotda, ilk bor Termiziyning o‘rganilmagan “Kitob al-Hikma” asari bayon qilingan. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlar asosida ta‘kidlash lozimki, al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari mavjud. Biroq ular asosan qadimshunoslik, tarixshunoslik, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, sharqshunoslik va tasavvufshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan. Natijada, alloma ilmiy merosining aniq pedagogik tahlili e‘tibordan chetda qolgan. Holbuki, pedagogik ta‘limotlar tarixida al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek tadqiqot jarayonida al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning mavjud holatini o‘quv-tarbiyaviy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni o‘rganish orqali amalga oshirish maqsad qilib belgilandi. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi rejalashtirilgan fanlar, sinf va sinfdan tashqari ishlar hamda mustaqil ta‘lim jarayonlarining imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni va ahamiyati”** deb nomlanib, mazkur bobda al-Hakim at-Termiziy hayoti va faoliyati, alloma asarlari

⁷ Массон М.Е. Надписи на штурке из архитектурного ансамбля у мавзолея Хаким ат-Термизий. Вып.172. Труды ТашГУ. – Ташкент, 1960. – С. 44-80., Пугаченкова Г. Термез. Шахрисабз. Хива. – Москва: Искусство, 1976. - 208 с. Аршавская З.А. и др. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Ташкент: Изд. лит. и искусства, 1982. – 152 с.

⁸ Massignon L. al-Tirmidhi // *Encyclopaedie des Islam*. Leiden-Leipzig. 1930. – P. 853.

va ularning pedagogik tahlili, Hakimiya ta'limotining mazmuni va mohiyati hamda alloma asarlarining didaktik ahamiyati bayon qilingan.

Al-Hakim at-Termiziy va uning zamondoshlari asarlaridagi sanalar, xorijiy olimlar tomonidan allomaning hayoti va uning merosini o'rganishga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlarning tahlili, alloma ustozlarining tavalludi va faoliyati sanalari uning tavallud topgan sanani bir qadar oydinlashtiradi. Islom dunyosiga mansub olimlar orasida ko'proq Tojiddin as-Subkiy ma'lumotiga asoslanib, alloma vafotini milodiy 898-yil (milodiy 285-yil) sanasi bilan belgilash qabul qilingan. Olimlarning fikri va manbalarning qiyoslab o'rganish natijasida Hakim Termiziyning tavallud sanasi 809-810, vafot sanasi 898-909 yillar oralari, – degan fikr haqiqatga yaqin. Albatta, oiladagi ijobiy muhit va tarbiya farzand kamolotida muhim o'rin tutadi. Ota-onaning tarbiya jarayonida qat'iyligi, shijoati hamda namuna bo'lishi farzand tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. Chunki, dono xalqimizda, qush uyasida ko'rganini qiladi, – deb bejiz aytilmagan. Bu haqda alloma “Badv ush-sha'n Abu Abdulloh” risolasida quyidagicha yozadi: “sakkiz yoshga to'lganimda alloh taolo o'z inoyatini mendan darig' tutmadi. Shayx menga ilm-fan sirlarini o'rgatib, tinmay ilm olishni targ'ib qilar edi. Butun vujudim bilan bilim va saboq olishga intildim. Go'daklik chog'imdan o'yin o'rnini kitob mutolaasi egalladi”. Demak, al-Hakim at-Termiziy bolaligidan bilim olishga intilgan, ustozidan ilm sirlarini qunt va sabot bilan o'rgangan. Uning asosiy faoliyati kitob mutolasi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bu bolalarimizni yoshlikdan bilim sirlarini egallashga, kitob mutoola qilishga undaydi.

Al-Hakim at-Termiziy ona shahri Termizda maktab va madrasada o'qib, Qur'on, hadis, fiqh, sarf va nahv (tilshunoslik), jo'g'rofiya, falakiyot, riyozat fanlariga doir dastlabki bilimlarni olib, Movarounnahr, Xuroson, Nishopur, Marv kabi madaniyat markazlarida ta'limni davom ettirgan. Alloma 27 yoshida haj safariga jo'naydi. Uning bu muqaddas shahar tomon yo'li Arab xalifaligining yirik shaharlari Marv, Nishopur, Ray, Hamadon, Basra, Bag'dod, Kufa orqali bo'lib, safar davomida bu yirik shaharlarning olimlari bilan tanishadi va ilm-ma'rifat sohasida qizg'in suhbatlar qiladi. Alloma ona shahri Termizga qaytib kelganida to'liq ma'naviy-axloqiy qayta shakllangan, zohidlik, ya'ni dunyo havaslaridan yuz o'girib, tarki dunyochilik turmush tarzini qabul qilgan edi. Mana shu davrdan boshlab allomaning hayotida uzoq hamda mashaqqatli yangi burilish davri boshlanadi. U hech bir narsadan o'zini ayamasdan riyozat qilishga, uyda yolg'iz qolib, cho'llarga tanho safar qilish bilan chegaralanadi. Hatto, oqib kelayotgan daryoning sovuq suvidan parhez qiladigan, suvlar qandaydir nopok joylardan o'tib kelgandek tuyulayotganligini, shu sababli quduq yoki buloq suvidan ichganligini ham alohida ta'kidlaydi. Mana shu jarayonlar sababli u o'z ta'limotini yaratdi, endi u ta'lif qilish, ta'lim berish va tasavvuf bilan shug'ullandi.

Al-Hakim at-Termiziy tomonidan yaratilgan asarlar va ustozlari soni, hozirgacha ilmiy bahslarning asosiy masalasi sifatida munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu borada dastlabki ilmiy tadqiqotlar L.Massinyon va U.Yahyo nomi bilan bog'liq. Ayniqsa, 1954-yilda amerikalik sharqshunos N.Xir tomonidan allomaning 55 ta asari nomi va bu asarlarning saqlanish joylari aniqlangan. Arab tadqiqotchisi Abdulfattoh Barakaning yozishicha, al-Hakim at-Termiziy o'zidan

keyin 400 dan ortiq qimmatli asar qoldirgan bo'lib, ulardan 57 tasi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Tadqiqotchi olim Ibrohim Usmonov "Hakim Termiziy" risolasida alloma asarlarini quyidagi sinflarga ajratadi:

1. Tafsir va Qur'on ilmlariga oid asarlari: "Al-Amsol min al-kitob vas-sunna", "Tahsil nazoir al-Qur'on", "Tafsir", "Al-Furuq va manat-taroduf".

2. Fiqh ilmiga oid asarlari: "Al-Hajj va asroruhu", "Sharh as-solat va maqosidiho", "Sabab at-takbir fis-solat", "Ilal ash-shari'a", "Al-Masoil al-afina".

3. Kalomga oid asarlari: "Ar-Radd al ar-rofiza", "Al-Aql val-havo", "Al-Farq bayn al-ayat val-karomat", "Ar-Radd alal-mu'attila", "Sharh qavl – Ma al-iman val-islom val-ihson", "Al-Kalom ala mona la ilaha illa Alloh".

4. Islom Falsafasiga oid asarlari: "Kitob al-aqyos val-mug'tarrin", "Isbot al-ilal fil-amr van-nahy", "Bayon al-ilm", "Huquq".


5. Tasavvuf tarixiga oid asarlari: "Anvo' al-ma'orif", "Tarix al-mashoyix".

6. Tasavvufiy qarashlariga oid asarlari: "Buduvv ash-sha'n Abu Abdulloh", "Adab un-nafs", "Riyoziyat an-nafs", "Xatm al-avliyo", "Bayon al-farq bayn as-sadr val-qalb val-fuad val-lubb", "Ma'rifat al-asror", "Manozil al-ibod min-al iboda", "Al-Masoil al-maknuna", "Adab al-muridin", "Risalat makr an-nafs", "Ilm al-avliyo", "Abvob muxtalifa", "Al-Jumal al-lozim ma'rifatuhu", "Javob kitob Usmon ibn Said min ar-Ra'y", "Al-Hikma minal-ilm al-botin", "Sifat al-qulub va ahvoliho va hay'at tarkibiho", "Urs al-orifin", "G'avr al-umur", "Masoil at-ta'bir", "Daqoiq al-ulum".

7. Hadis ilmiga oid asarlari: "Navodir al-usul", "Al-Amsol min al-kitob vas-sunna", "Al-Manhiyot va kull ma ja'a min hadis bin-nahy", "Bayon al-kasb".

Alloma asarlarida insonning nafsoniy fitratida tabiatan, tug'ma yettita xulq-atvor borligini ta'kidlaydi: g'azab, rag'bat, rahbat (hadik, qo'rquv), shahvat, g'aflat, shak, shirk. Ularning har biriga ta'rif beradi. Yaqin, qalb sifati, nusrat, mujohada, havoning ma'no-mazmunini va bir-biri bilan bog'liqligini ajratib ko'rsatadi. Xususan, yaqin – bu inson qalbida ma'rifat nuridan bilim olishdan paydo bo'ladi. U sening ilohing nuridirki, u osmonlaru yerning nuri va barcha narsaning nuri. Agar ismli barokatli Allohga yuzlansang, qalb nur bilan yorishadi. Ana shu yaqin. Qalb – bir parcha go'sht. Nurning ma'dani qalb. Qalb ham ma'rifat nuri, aql nuri va ilm nuri bilan o'z o'rniga qaytadi. Nusrat – Allohning insonni o'z yo'liga hidoyat qilishi. Bu – o'sha kishining qalbi uchun o'zi sari yo'l qilishi. Hatto bu hidoyat uning qalb ko'zlariga aylanib, uning kayfiyatsiz ko'rib turgandek bo'ladi. Mujohada – haqqoniy jiddu jahd qilish. Ya'ni nafsiga qarshi bor kuchi va imkoniyatini sarflash. Havo esa nafsning nafi va nafasi hisoblanadi. Uning "havo" deb nomlanishiga asosiy sabab, nafs o'sha bilan "havo" qiladi – qulaydi. Nafs esa qalbn qulatadi, qalb esa arkon – ishlar bilan aqlni qulatadi. Aql esa kishini butunicha olovga qulatadi.

Hakim Termiziyning "Nafs riyozati" asari pedagogikadagi muhim masalani ko'tarib chiqqan. Asarni tahlil qilib nafsni tarbiyalashda Hakim Termiziyning ma'rifat va riyozat konsepsiyasi mazmuni va ahamiyati quyidagicha ochib berildi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Hakim Termiziyning ma'rifat va riyozat konsepsiyasi

Bu risolada “farah” – shodlik, shodlanish masalasiga alohida e’tibor berilgan. Farahni maqtalgan va yomon ko‘rilganga ajratib, maqtalgan farah – qalb farahi, yomon ko‘rilgani, qaytarilgani esa nafs farahi, deyiladi. Qaysinisi g‘olib kelsa, inson o‘sha tomonga og‘ishini ta’kidlab, bu kishining nafs odobi va riyozatidagi darajasiga bog‘liqligini alohida e’tirof etadi. Har bir insonda yettita a‘zo mavjud: til, quloq, ko‘z, ikki qo‘l, ikki oyoq, qorin va farj. Alloma bu a‘zolarining vazifalarini bayon qiladi. Har bir a‘zoda shahvat borligini ta’kidlaydi. Shahvatning jamlangan o‘rni esa nafsda. Agar bu shahvat Alloh taoloning izni berilgan holatlarda ishlatilsa va bular bilan u belgilab bergan hadlardan o‘tib ketilmasa, ana shu kishiga ruxsat berilgan yo‘l. Agar ta’qiqlangan narsalarga o‘tib ketsa, haddidan oshsa, malomatga qoladi. Shuning uchun alloma: “ma’rifat sultoni – hukmronligi, hujjati, aql, ilm, fahm, hifz, zehn kabilar ko‘krakda. Ma’rifatning o‘zi esa qalbd. Fahm fuadda, aql bosh miyada, hifz uning yo‘ldoshi”⁹ – deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotimizda Hakim at-Termiziyning “Navodir al-usul” va “Adab un-nafs” asarlari qiyosiy tahlil qilindi. Undagi yetakchi g‘oyalar ajratib olinib, ularning mazmuni zamonaviy tarbiya usullari bilan integratsiyasi o‘rganib chiqildi. Natijada, alloma ta’limotining bosh g‘oyasi “bilish-ilm-nafs-axloq”, – degan xulosaga kelindi. Bu tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasi hisoblanadi. Mazkur konsepsiya o‘quvchilarning ichki intellektual va ruhiy quvvatini faollashtirishi bilan bir qatorda zamonaviy “komplementar tarbiya” mazmuni boyitishga xizmat qiladi. Hakimiya ta’limoti mazmunidan kelib chiqib mazkur konsepsiya

⁹ Термизий ал-Ҳаким. Муҳаммад Ҳаким Термизий рисоалари // Ж.Чўтматов таржимаси. – Т.: Movarounnahr, 2018. – 456 б.

o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda va ularning ma’naviy-yuksalishida xizmat qiladi. Uning mantiqiy bog‘liqligini quyidagicha tasniflaymiz (2-rasmga qarang).



2-rasm. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ma’naviy-yuksalish diagrammasi

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ma’naviy-yuksalish diagrammasidagi bilish, ilm, nafs, axloq mazmunini quyidagicha izohlaymiz. Bilish bu – til bilan aytilgan haqiqatni, qalb bilan tasdiqlab, amaliy faoliyatda bajarishdir. Bilish kishi qalbining uyg‘onishi. Atrofni, narsalarni umuman haqiqatni ko‘rish qobiliyati hisoblanadi. Shuningdek, insonning o‘zini va o‘zligini qalbi bilan anglashidir. Ilm inson yo‘lini yorituvchi nurdir. U insonga nima halol, nima harom, nima foyda va nima zarar ekanligini ko‘rsatib beradi. Hakim Termiziy ilm-nurdir, – deydi va ilmni ikki usulda tasniflaydi. Nafsga tobe bo‘lgan ilm va ma’rifatparvarlik ilmi. Nafs insonning ichki kurash maydoni. Nafs ikkiga ajratiladi: ichki va tashqi. Ichki nafsdan yomonliklar jam bo‘ladigan, tashqi nafsdan yaxshi va yomon fazilatlar jamlangan va qaysinisi g‘olib kelsa shunga ergashadi. Axloq amaliy natijadir. U qalb nuri inson faoliyatida nomoyon bo‘lishi. Ichki dunyodagi ilm va nafs tarbiyasi tashqi tomondan chiroyli muomala, saxovat va adolatning namoyon bo‘lishidir. Axloq tashqi qatlam sifatida pastdan yuqoriga emas, balki ichkaridan tashqariga qarab harakatlanadigan ketma-ketlikdagi uzviy jarayon hisoblanadi. Agarda qalbdan bilish (ma’rifat) bo‘lmasa, ilm faqat ma’lumotga aylanadi. Agar ilm mukammal bo‘lmasa, nafsni tarbiyalab bo‘lmaydi. Agarda nafs tarbiyalanmasa, axloq shunchaki ko‘zbo‘yamachilik (riyo) bo‘ladi.

Al-Hakim at-Termiziy Hakimiya ta’limotiga asos soladi va uning nizomlari, yo‘l-yo‘riq va talablari, ustoz va shogirdlarga qo‘yiladigan talablar, usul va vositalariga bag‘ishlangan “Yo‘l-yo‘riqlar kitobi” (“Kitob an-nahaj”), “Valililar muhri” (“Hatm ul-avliyo”), “Toliblar yo‘riqnomasi” (“Irshod ut-tolibin”) kabi asarlar yaratadi. Alloma Termizga qaytgadan so‘ng, Hakimiya ta’limotining tashkiliy va amaliy jihatlariga e’tibor qaratadi. Mazkur ta’limotning ilm-fan va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini quyidagicha izohlaymiz.

Birinchiidan, koʻhna Jayhunning Balx shahri va Paygʻambar oroli koʻrinib turgan eng baland qirlik, xushmanzara va bahavo qirgʻogʻidan joy tanlanib, ilm-fan rivoji uchun masjid va xonaqohlar qurildi.

Ikkinchiidan, barcha ilm bilan shugʻulanadigan kishilar “ustoz-shogird” asosida birlashtirilib, dunyoviy fanlarga yoʻnaltirildi. Ular bilan ilm-fan boʻyicha munozaralar tashkil qilindi.

Uchinchiidan, dastlab Hakimiya taʼlimotida zohidlar, darveshu qalandarlar yigʻini davrasi tarzida tashkil topgan boʻlsa, taʼlimotning nazariy asoslari ishlab chiqilgandan soʻng, ularning aniq maqsad va vazifalari, yoʻnalishlari belgilab olindi. Buning natijasida shu davrda zamonasining yetuk ilm-fan olimlari yetishib chiqdi.

Toʻrtinchiidan, davlatni boshqarishda ilm-fanga tayanilgan. Hakimiya taʼlimoti juda yuqori darajada mustahkamlangan mafkura darajasiga koʻtarildi. Hatto, davlatni boshqarishda taʼlimotning gʻoyalaridan foydalanilgan. Jumladan, podshoh Hakim Termiziyga “Navroʻznoma”, “Solnoma” kabi mashhur asarlarni yozib berishni taʼkidlagan.


Hakim Termiziy Hakimiya taʼlimotini nazariy asoslashda zamondoshlarining tariqatini oʻrganib, tahlil qilibgina qolmasdan, uni sintezlashtirgan. Masalan, tasavvufni avtodga, uning bosqichlarini najiyb, qutb, gʻavs va abdolga oʻxshatadi. Bunda najiyb, qutb, gʻavs, abdol soʻzlari oʻz-asl maʼnolarida emas, balki ramziy maʼnoda: doimo insonni himoyalovchi, madadkor, toza, pok toʻrt nafar ulugʻ zot maʼnosida; avtod (ustun) esa ana shu toʻrt buyuk zotni birlashtirib turuvchi qoziq, tayanch sifatida berilgan. Shuningdek alloma tasavvufni Hakimiya taʼlimoti bilan ilmiy jihatdan qiyoslab, quyidagicha tasniflaydi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Hakimiya taʼlimoti mazmuni

Shu oʻrinda alloma tasavvuf ilmini yongʻoqqa, uning bosqichlarini yongʻoqning poʻsti, poʻchogʻi, poʻchoq ichidagi pardasi va magʻziga oʻxshatadi. Bunda magʻiz yongʻoqning poʻsti, poʻchogʻi, pardasi olingandan keyin koʻringani kabi, haqiqatga tasavvufning shariat, tariqat, maʼrifat bosqichlari orqali erishilishi

ta'kidlangan. Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalarining o'zaro bunday uzviy bog'liqligi yer, daraxt va mevalarning paydo bo'lishi munosabatiga ham nisbat berilgan. Shuningdek, Hakimiya ta'limotida ustoz oldida ham yuksak darajadagi talablar qo'yilgan: "ustoz barcha talablariga javob berishi, ilm sirlaridan ogoh bo'lishi, shogirdlar qalbidan joy olishi va ularning moddiy ahvolidan xabardor bo'lmasdan ustoz bo'lishi mokin emas"¹⁰. Ta'limotda ta'kidlangani kabi, har bir ustoz shogirdining barcha xatti-harakatlariga mas'ul, kerak bo'lsa javobgar bo'lgan va ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi tarbiya usullaridan samarali foydalangan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Hakimiya ta'limotida tarbiya usullari

Chunki, inson tug'ilganidan birinchi bo'lib tarbiyaviy faoliyatga kirishadi va so'ngra ta'lim oladi. Odam yaratilishi bilan bilan birinchi bo'lib, unga Jabroil alayhissalom ta'lim bergan. Payg'ambarlar ham ilohiy ta'lim olib, so'ngra ummatlarini tarbiyalagan. Bu haqda Qur'oni Karimning Qalam surasida: "albatta sizlar ulug' xulq ustidasiz", – deyiladi.

Dissertatsiyaning **“Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida Termiziy allomalari merosi vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari, al-Hakim Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik modeli, al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari bayon qilingan.

Qadimgi Termizning shon-shavkati, e'tibor va sharafi ham mangu Termiziyilar bilan dunyoga tanilgan. Termizning abadiy bezavol qal'alari ulug' Termiziyilar hisoblanadi. Har bir yo'nalish va muayyan soha oldiga maqsad qo'yiladi. Aslida tadqiqotning maqsadi uning mohiyatini umumiy nuqtai nazaridan yoritishga xizmat qiladi. Termiziy allomalari merosi vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning maqsadi – o'quvchi-yoshlarga Termiz shahridan yurtimiz ilmi dovrug'ini jahonga tanitgan buyuk allomalarning hayoti, faoliyati va tarbiyaviy – axloqiy qarashlarining umumiy asoslariga oid nazariy ma'lumotlarni

¹⁰ Термизий ал-Ҳаким. Маърифат ул-асрор (Сирлар маърифати) // А.Турсунов таржимаси. – Т.: Movarounnahr, 2018. – 104 б.

berish hamda ularni pedagogik faoliyat jarayonida samarali foydalanishdan iborat. Shuningdek, mazmuni quyidagicha: Termiz va Termiziy allomalarining ilmiy faoliyati va ularning ma'rifatparvarlik qarashlaridan yoshlar tarbiyasida foydalanishning mazmuni, jarayoni, tamoyil, yetakchi g'oya, shakl, metod va vositalari haqida ma'lumot beradi. Uning vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-yoshlarni Termiziy allomalarning hayoti va faoliyati, ularning ma'rifatparvarlik qarashlari bilan yaqindan tanishtirish;

- o'quvchi-yoshlarni Termiziy allomalarning G'arb va Sharq mamlakatlarida o'rganilishi va ularning qimmatli asarlarining dunyo mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi, asarlari mazmunidan ilm-ma'rifatga ega bo'lish haqidagi tasavvurlarini hosil qilish va ularning ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchi-yoshlarga Termiziy allomalari asarlarining mohiyatini o'rgatish orqali ijodiy tafakkurini rivojlantirish;

- o'quvchi-yoshlarda Termiziy allomalari asarlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.

Darhaqiqat, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimida Termiziy allomalari merosidan foydalanish: bilimli, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, keng dunyoqarash egasi, zukko va aqliy tafakkur sohibi, kasb-hunarli, vatanparvar yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan yoshlarni yetishtirib berishda xizmat qiladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz natijasida Termiziy allomalari merosi vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Natijada, uzluksiz ta'lim jarayonida Termiziy allomalari ilmiy merosidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- birinchidan, oila tarbiyasida Termiziy allomalari hayotidagi rivoyatlardan foydalanib, ota-onalar tomonidan bolalarga fazilatlar izohlanib, tushunchalar berilib odatlantirib boriladi. Natijada, bolalarining ongida yaxshi va yomon fazilatlar ajratish shakllanadi;

- ikkinchidan, maktabgacha ta'limda olib borilayotgan mashg'ulotlarda allomalarning faoliyati, asarlari video roliklar asosida tanishtiriladi. Al-Hakim at-Termiziyning "Ona rizosi", "Kitobning qudrati" kabi hikoylari tarbiyalanuvchilarga aytib beriladi. Natijada, bolalar ongida ota-onaga mehr, kitobni qadrlash kabi fazilatlar shakllanadi;

- uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchilarda "Tarbiya" fani, Sinf soat va darsdan tashqari mashg'ulotlarda al-Hakim at-Termiziyning ilmiy faoliyati va asarlari o'rganiladi. Asarlarida keltirilgan fazilatlar tahlil qilinadi. Natijada, o'quvchilarda alloma faoliyatini o'rganish, asarlar asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlar mohiyatini anglaydilar;

- to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarining talabalarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda al-Hakim at-Termiziyning ilmiy faoliyati va asarlari o'rganiladi va tadqiq qilinadi. Natijada, talabalar ilm-fanni chuqur egallash yo'llarini bilishga va allomalar merosidan foydalanish kompetensiyasiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday vaziyatda ham hayotda o'z o'rnini topa oladigan, jamiyat va davlat ravnaqiga munosib hissasini qo'sha oladigan barkamol insonlarni


tarbiyalash uchun al-Hakim at-Termiziyning ta'limotini o'quv tarbiya materiali mazmuniga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda alloma asarlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun didaktik jarayonda quyidagi vazifalar ahamiyatli hisoblanadi:

1. O'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari va uning natijalarini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qila olishlari, al-Hakim at-Termiziy asarlari mohiyatini to'liq o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalari aniq namoyon bo'lishi.

2. O'qituvchining ta'lim mazmunini, o'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishi.

3. Olingan natijalarga tayangan holda kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida alloma ta'limoti mazmuni va nazariyasini, ish jarayonida, xatti-harakatlarini tuzatib, takomillashtirib borishlariga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya inson ongining jamiyat bilan o'zaro aloqadorligi uning jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushuna olishi, jamiyatda tan olingan axloqiy me'yor, ideal va talablarni bajarishda mas'uliyatni his eta olishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu etiqodlarning tizimli, mustahkam ma'naviy-axloqiy his tuyg'u hamda fazilatlarini shakllantirish jarayoni. Shuningdek, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy xulq-atvor va jamiyatning barcha a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon qiluvchi mezonlardan ekanligini anglashi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi hisoblanadi. Mazkur tasnifda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi (5-rasmga qarang).



5-rasm. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash komponentlari

Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda texnologiyalashtirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya texnologiyalari tarbiya jarayonini samarali o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga tarbiya shakllari samaradorligini oshiruvchi texnik va shaxs faoliyati hamda

ularning o‘zaro aloqalarini hisobga olish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodi hisoblanadi. Ta‘lim tizimida innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi kunning eng asosiy talablaridan hisoblanadi. Chunki, o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirmasdan, ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi.

Tadqiqotimiz jarayonida al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik modeli quyidagicha (6-rasmga qarang) o‘z ifodasini topgan. Mazkur model tadqiqot ishining asosiy mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ishlab chiqildi. Uning tarkibi quyidagi to‘rtta blokdan tashkil topgan: maqsadli, mazmunli, jarayonli va natijaviy. Maqsadli blokda tadqiqotning maqsadi va zarurati belgilangan. Mazmunli blok tadqiqotning bosqichlari, ilmiy metodologik yondashuvlar, o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash komponentlaridan iborat. Tadqiqotning bosqichlari quyidagi uchta bosqichdan iborat:


- tayyorgarlik bosqichida tadqiqotning maqsad va vazifalari bo‘yicha ob‘yekti belgilanib, uning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi;
- pedagogik tajriba-sinov bosqichida ob‘yektlarda diagnostik metodlar pedagogik tahlildan o‘tkazildi;
- materiallarni qayta ishlash bosqichida olingan ma‘lumotlar tahlil qilindi.

Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiqot jarayonida quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalanildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Al-Hakim at-Termiziy ta‘limoti vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash shakl, metod va vositalari

Shakllari	Kichik va guruhli mashg‘ulotlar, individual mashg‘ulotlar, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, fan to‘garaklari, mustaqil ish topshiriqlari, turli tanlovlar. Konstruktiv muloqot shakllarida ishtirok etish. Ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash shakllarini loyihalash va amalga oshirish, barqaror ma‘naviy-axloqiy e‘tiqod va qarashlar tizimining shakllanishi hamda qaror qabul qilish malakalarini egallash.
Metod va usullar	Suhbat, kuzatish, tushuntirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, ishontirish, o‘z-o‘zini boshqarish, maslahat, jonli muloqot, pedagogik talab. Muammoli tavsifdagi suhbat, munozara, o‘z-o‘zini baholash, empatiya, matn bilan ishlash, aqliy hujum, bahs munozara, dialog, o‘yinli metodlar, aniq vaziyatlarni tahlil etish, “Fikringizni bayon qiling”, “Bilimingizni mutahkamlang”, “Bilimingizni namoyon qiling”, “Jamoangizni faollashtiring” metodikalari.
Vositalar	O‘quv materiallari, darsliklar, al-Hakim at-Termiziyning asarlari, kitob va qo‘llanmalar, o‘qituvchi nutqi, hamkorlikdagi amaliy faoliyat.



6-rasm. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik modeli

Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning asoslari quyidagilardan iborat:

1. Al-Hakim at-Termiziy ta'limotining qimmatli manba va pedagogik ahamiyatga ega ekanligi.

2. Alloma ilmiy merosining o'quvchilar dunyoqarashini boyitishi va ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hissa qo'shishi.

3. Al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosining jahon pedagogika fanining "inson kapitali" haqidagi qarashlari bilan o'zaro uyg'unligi.

4. Mamlakatimizda yoshlar uchun al-Hakim at-Termiziyning pedagogik merosidan foydalanish imkoniyatining kengligi.

Tadqiqot ishining **"Pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni va samaradorligi"** deb nomlangan to'rtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning maqsad va vazifalari hamda natijalari tahlili berilgan. Tajriba-sinov ishlari 2021-2025-yillarda Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 11-son, Termiz tumanidagi 25-son, Buxoro viloyatidagi Buxoro shahar 6-son, Buxoro shahar 29-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi, Xorazm viloyati Urganch shahar 4-son, Yangiariq tuman 10-son, 24-son, Toshkent viloyati Chirchiq shahar 3-son, 15-son, Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 2-son, 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilib, jami 508 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda: aniqlashtiruvchi bosqich, shakllantiruvchi bosqich, ta'kidlovchi bosqichda tashkil qilindi va har bir bosqichda belgilangan vazifalar amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida:

a) tajriba-sinov maydoni belgilandi;

b) al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni va ahamiyati o'rganildi;

v) al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari aniqlandi;

g) al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning didaktik modeli ishlab chiqildi;

d) al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalar samaradorligi tahlil qilindi;

e) taklif qilingan metodika samaradorligini aniqlash maqsadida matematik-statistik metodlardan foydalanib tahlillar o'tkazilib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda samarali hisoblangan shakl, metod va vositalar belgilab olindi. Ular quyidagilardan iborat:

– suhbat, pedagogik kuzatuv, uchrashuv, anketa va test savollarini tashkil qilish, davra suhbat, intervyu olish, ma'ruza, seminar, amaliy trening, debat, konferensiya, ko'rgazma tashkil etish, tanlov, ekskursiya kabi shakllar;

– tushuntirish, hikoya qilish, al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmunini yoritishga xizmat qiladigan manbalarni o'rganish, amaliy mashg'ulot, namoyish etish, ko'rgazmalilik, ekskursiya, "Hikmatli hikoyalar orqali o'qitish", "Reflektiv jurnal yuritish",

“Loyihaga asoslangan o‘qitish (project-based learning)”, “Keys” texnologiyasi hamda “Rolli o‘yinlar (Role-playing games)”, “SWOT-tahlili”, “Ikki qismli kundalik” metodlari;

– o‘quv manbalari, alloma faoliyati haqida ma’lumot beradigan falsafiy, pedagogik-psixologik, ilmiy yo‘nalishlardagi asarlar, o‘quv hamda texnik jihozlar, axborotli texnologiyalar (radio, televizor, audio hamda video magnitofonlar, kompyuter, proyektor) kabi vositalar.

Al-Hakim at-Termiziy ta’limoti vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanilgan texnologiyalarning haqiqiy zaruriyati, ishonchliligi va uning samaradorligini aniqlashda belgilangan aniq maqsad, mazmun, metod, vosita va yangicha yondashuv muhitini yaratishga kirishildi. Maqsadni amalga oshirish uchun Tarbiya konsepsiyasidan foydalanib alloma asarlarining mazmuni mohiyatini tahlil qilish asosida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mezonlari belgilab olindi. Tadqiqotda ishtirok etgan jami 508 nafar o‘quvchidan 260 nafari tajriba guruhiga, 248 nafari esa nazorat guruhiga ajratildi. Tadqiqot quyidagi faoliyatlar asosida olib borildi:

- o‘quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish;
- o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan suhbatlar tashkil etish;
- al-Hakim at-Termiziy ta’limoti vositasida ma’ruza, seminar, trening, konferensiya, davra suhbat, debat va bahs-munozaralarni tashkil qilish.

Mazkur eksperimental faoliyatlar o‘quvchilarning ushbu ta’limotga oid bilim, tushuncha va axloqiy pozitsiyalarini shakllantirishga qaratildi. Tadqiqot davomida biz o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlarga tayandik:

1. Bilim mezon – al-Hakim at-Termiziy hayoti, asarlari va g‘oyalariga oid nazariy bilimlar darajasi.

2. Mazmunli tushunish mezon – o‘quvchining mazkur ta’limotni zamonaviy hayot hodisalari bilan bog‘lay olishi.

3. Axloqiy munosabat mezon – o‘quvchining nafs tarbiyasi, halollik, sabr, kechirimlilik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan shaxsiy yondashuvi.

4. Amaliy faoliyat mezon – o‘quvchining darsdan tashqari tadbirlardagi faol ishtiroki, tashabbuskorligi.

5. Refleksiya mezon – o‘zining xatti-harakatlari va qarorlarini ma’naviy-axloqiy me’yorlar asosida tahlil qila olish qobiliyati.

Mazkur mezonlarning birinchi bosqichi sifatida test tajriba shaklidagi diagnostika o‘tkazildi. Test 10 ta savoldan iborat bo‘lib, har bir to‘g‘ri javob 1 ball bilan baholandi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi (2-jadvalga qarang).


Tajriba boshlanishidan avval tajriba va nazorat guruhlarining test natijalari orasidagi farq statistik jihatdan ishonchli emasligi aniqlandi ($t = -0,193$; $p = 0,234 > 0,05$). Bu holat har ikki guruhning dastlabki bilim darajalari bir xil bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tajriba yakunida esa tajriba guruhining test natijalarida sezilarli o‘sish kuzatildi (o‘rtacha ball 8,67), nazorat guruhida esa bu 5,45 ballni ko‘rsatdi. Student t mezon natijasiga ko‘ra, bu farq statistik jihatdan ishonchli ($t = -2,97$; $p = 0,006 < 0,01$) deb topildi. O‘quvchilarning al-Hakim at-Termiziy ta’limotini

o‘rganishga qaratilgan test natijalarining diagrammada ifodalanishi quyidagicha ko‘rinishni oladi (7-rasmga qarang).

2-jadval

Al-Hakim at-Termiziy ta’limotini o‘rganishga qaratilgan test natijalarining mashg‘ulotdan keyingi o‘zgarishi Styudent t mezonida (N=508)

Tajriba sinov o‘tkazilgan vaqt	Guruhlar	N	O‘rtacha qiymat	t	p
Tajriba boshida	Tajriba	260	3,7	- 0,193	0,234
	Nazorat	248	4,3		
Tajriba oxirida	Tajriba	260	8,67	- 2,97	0,006**
	Nazorat	248	5,45		



7-rasm. O‘quvchilarning al-Hakim at-Termiziy ta’limotini o‘rganishga qaratilgan test natijalarining diagrammada ifodalanishi

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha olib borilgan kompleks tarbiyaviy ishlar:

- o'quvchilarning al-Hakim at-Termiziy ta'limoti haqida bilimlarining oshishiga;

- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida tushuncha va munosabatlarining chuqurlashishiga;

- o'quvchilarning o'zini o'zi anglash va ularda ma'naviy-axloqiy ongning rivojlanishiga sezilarli darajada yuqori ijobiy ta'sir ko'rsatganligi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda al-Hakim at-Termiziy ta'limoti kuchli g'oyaviy-ma'naviy manba ekanligi amaliy asosda isbotlandi. Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, mazkur ta'limot asosida tashkil qilingan tajriba-sinov ishlari o'quvchi-yoshlarning faqatgina nazariy bilimlarini, emas balki ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ijtimoiy pozitsiyasi hamda shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Student t mezoni asosida o'tkazilgan statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

- tajriba guruhi o'quvchilari test natijalarida ishonchli darajada yuqori natijalarga erishgan;

- o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarga nisbatan ongli yondashuv shakllangan;

- o'quv jarayoniga integratsiyalashgan shakldagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar ularning rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

- ma'ruza, seminar, trening, davra suhbat va bahs-munozaralar shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha natijaviy samaradorlikka erishilganligi kuzatildi.

XULOSA

“Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish hamda bu jarayonning samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning ilmiy merosini o'rganish asnosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash dolzarb ijtimoiy – pedagogik muammo hisoblanadi.

2. Hozirgi kunda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda, o'qitishning zamonaviy metodlarini tatbiq etish orqali allomaning ilmiy merosini o'rganishni takomillashtirish, jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, hamkorlikda o'qitishni rivojlantirish ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonini samarali tashkil qilishning pedagogik

sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonda al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammo ekanligi kuzatish va tadqiqotlar natijasida aniqlandi.

3. Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish o'zining umumpedagogik, umumdidaktik hamda umumpsixologik o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlarni ochib berish natijasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati vujudga keldi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning pedagogik sharoitlarini aniqlash uchun mavjud bo'lgan pedagogik yondashuvlar, ma'lumotlarni to'plash, tasniflash va pedagogik faoliyatga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati aniqlandi.

4. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni faqat bilim, axborotlarni o'zaro ayirboshlash, bashorat qilish, ma'rifat tarqatish hamda taqdim qilish imkoniyati emas, balki nomuntazam, to'g'ridan-to'g'ri va teskari muloqot vaziyati hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, alloma merosini asrash, ularni keng dunyoqarash va intellektual salohiyatni oshiradi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyalovchi pedagogik omil sifatida belgilanadi.

5. Al-Hakim at-Termiziy ilm fanning barcha yo'nalishlarida qimmatli asarlar yaratgan va ularda ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni ma'nosini chuqur ochib berishni maqsad qilgani ko'rinib turibdi. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Sinf soati va "Tarbiya" fanida al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul", "Manozil ul-ibod minal-iboda", "Baduvv ash-sha'n Abu Abdulloh", "Navro'znoma", "Solnoma", "Aql va havo", "Ma'rifat ul-asror", "Nafs odobi", "Nafs riyozati", "Kasbning bayoni", "Saraxs ahli so'ragan masalalar" asarlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

6. Al-Hakim at-Termiziy "tasavvuf bu – bilim" g'oyasini ilgari surib tasavvufning ilm maqomini olishida namuna ko'rsatdi. Uning qimmatli asarlari ilm-fanda muhim o'rin tutishi bilan birga ilm-ma'rifatga shijoati, bilimi va yuqori tafakkur sohibi sifatida: muhaddis, hofiz, zohid, imom, muazzin, sayyid, xoja, mufassir, orif, shayx, vali, olimi usuli ad-din va so'fi kabi unvonlarga sazovor bo'lib, "Hakimiya ta'limotiga" asos soldi. Mazkur ta'limot o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda dastur vazifasini o'taydi.

7. Al-Hakim at-Termiziy qomusiy olim sifatida: lug'atshunos, tarjimon, zoolog, huquqshunos, tabib, falakiyotshunos, psixolog, pedagog sifatida yangicha yondashdi. Ayniqsa, kishi jism, ruh va nafsdan iborat ekanligi, uyquda ruh tanani vaqtincha tark qilib, sayr etishi, yaxshi va yomon voqeliklarga guvoh bo'lishini, shuningdek, alloma insonning organizmining tarkibiy unsurlar - tuproq, havo, suv

va olov bilan bog'liq fiziologik, psixologik xususiyati hamda mijoz turlaridan kelib chiqqanligini pedagogik-psixologik tahlil qilganligi ta'kidlandi.

8. Al-Hakim at-Termiziy "bilish-ilm-nafs-axloq" ta'limoti orqali o'ziga xos ta'lim-tarbiya tamoyilini yaratdi. Natijada, shaxs shakllanishi, rivojlanishi va uning kamolotida alloma asarlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlanib, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning zamonaviy shakl (guruhli, individual), metod (interfaol) va vosita (keys topshiriqlari, diagnostik materilalar)lari aniqlandi va ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarda foydalanildi.

9. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatib borish, o'quvchilar hamda o'qituvchilar hamkorligida ma'ruza, seminar va treninglar, konferensiya, davra suhbat, debat, bahs-munozaralar tashkil etildi. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini aniqlashga xizmat qiladigan mezonlar ishlab chiqilib, ularning tarbiyalanganlik darajalari sifat ko'rsatkichlariga muvofiq matematik-statistik metod yordamida tahlil qilindi.

10. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida ma'ruza, seminar, trening, davra suhbat va bahs-munozaralar shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha natijaviy samaradorlikka erishildi.

Tadqiqot natijasida al-Hakim at-Termiziy ta'limoti vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillastirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

a) Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tilayotgan "Tarbiya" fani bo'yicha yaratilayotgan yangi avlod o'quv adabiyotlari mazmunida al-Hakim at-Termiziy ta'limoti mazmuni va mohiyatini yoritib beruvchi materiallarni kiritish;

b) Tarbiya fani va Sinf soatlarida al-Hakim at-Termiziy hikmatlaridan foydalanib axloqiy vaziyatlar, interaktiv mashqlar va fikriy tahlil topshiriqlarini qo'llash;

v) Sinfda ma'naviy murabbiy (mentor) joriy etish asosida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar bilan individual suhbatlar, maqsad qo'yish va axloqiy o'sish monitoringini olib borish;

g) O'quvchilarda refleksiya (o'zini tahlil qilish) mashqlarini yo'lga qo'yish asosida "Mening niyatim nima?", "Bugun qanday yaxshilik qildim?", "Men kimman" kabi savollar asosida reflektiv jurnal yurutish;

d) O'quvchilarning savob ishlar, jamoaviy ishlar va xayriya tadbirlarida bevosita ishtirokini ta'minlash maqsadida "Bir kun – bir ezgulik", "Halollik kuni" va "Yordam haftaligi" kabi lohiyalar tashkil qilish;

e) Ota-onlar yig'ilishlarida odob, kamtarlik, halollik kabi fazilatlarni mustahkamlash maqsadida seminarlar tashkil qilish asosida ularga "Termiziy saboqlari" nomli metodik tavsiyalar tarqatish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
PhD.01/2025.27.12. Ped.11.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АЧИЛОВ НУРИДДИН АБДУГАФФОРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ
ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ
ПОСРЕДСТВОМ УЧЕНИЯ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТИРМИЗИ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК**

Термез – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.1.DSc/Ped268.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.terdpi.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:	Рузиева Дилноз Исомжоновна доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Кадыров Кутлуг Бекмурадович доктор педагогических наук, профессор Избуллаева Гульчехра Валерьевна доктор педагогических наук, профессор Ходжаев Бегзод Худойбердиевич доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «10» июня 2026 года в 10:00 часов на заседании разового ученого совета на основании Ученого совета за №PhD.01/2025.27.12.Ped.11.01 при Термезском государственном педагогическом институте (Адрес: 190111, Термезский район, СМГ «Янгиабад» улица Ат-Термези дом 1-А. Тел.: (376) 221-93-56; факс: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного педагогического института (зарегистрирована за №32). (Адрес: 190111, Термезский район, СМГ «Янгиабад», улица Ат-Термези, дом 1-А. Тел.: (376) 221-93-56; факс: (376) 221-93-56; e-mail: terdpi@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «25» мая 2026 года.
(протокол реестра от «32» «25» мая 2026 года).



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность теме диссертации. Беспристрастное изучение духовного и образовательного наследия, созданного великими учёными и мыслителями мира, особое значение имеет исследование содержащихся в их произведениях идей, прославляющих единство нации и общества. Научное духовное наследие, оставленное великими учеными, жившими и работавшими в эпоху Восточного возрождения IX–XII и XIV–XV веков, является огромным вкладом не только в мир Востока, но и в мировое просвещение. С этой целью изучение нашей страны как одно из священных пространств, раздвигающих границы просвещения по всему миру, учение мыслителей играет важную роль в духовно-нравственном воспитании учащихся.

В мире проводится ряд исследований, направленных на защиту интересов общества, стремление к совершенствованию человека, его честование, научно-просветительскую пропаганду, мобилизацию жизни и творчества мыслителей на пути к взрослению молодежи. С этой целью научное наследие аль-Хакима ат-Термези переведены на языки народов разных стран мира – Европы, Азии, стран Американского континента, особое внимание уделяется вопросам просвещения, вожделение к науке, важности образования и воспитания в развитии личности, патриотизму, улучшению восприятия национальной идентичности, глубокому изучению национальных культурно-исторических традиций и богатого научного наследия нашего народа, а также их внедрению в сознание учащейся молодежи.

В нашей стране достигаются высокие результаты в области воспитания молодежи и ее всестороннего развития, а также воспитания интеллектуально талантливой молодежи. Особенно для подрастающего поколения проводится много практических мероприятий в области последовательного изучения духовно-нравственных взглядов наших мыслителей. Потому что, для совершенного овладения современными знаниями и умениями молодым поколением, приобретению ими поистине высокой культуры и интеллектуального потенциала в сфере просвещения уделяется особое внимание как приоритетному вопросу государственной политики. В то же время, исследование научного наследия наших великих учёных и эффективное использование их духовно-нравственных воззрений в их содержании при воспитании молодежи считаются актуальными вопросами. Также в Стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи направленные на «Содействие интеллектуальному, физическому и духовно-нравственному совершенствованию обучающейся молодежи, воспитание в духе гражданственности, патриотизма, толерантности, уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям»¹. В этом плане формирование системы подготовки зрелых специалистов на основе национального воспитания, национальной культуры, достижений науки,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

техники и передовых технологий на основе богатого научно-духовного наследия и бесценных ценностей нашего народа, предполагает необходимость духовно-нравственного воспитания учащихся посредством учений великих мыслителей, служащих этой цели.

Данная диссертационная работа в определенной степени послужит реализации задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года «Об образовании», Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6108 от 6 ноября 2020года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», Указе Президента Республики Узбекистан №УП-5712 от 29 апреля 2019года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2774 от 14 февраля 2017 года «О мерах по организации международного научно-исследовательского центра Имама Термизи», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №1059 от 31 декабря 2019 года «О мерах по реализации и утверждения Концепции непрерывного духовного воспитания», а также других нормативно – правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. В мире исследовательская работа по вопросам учения Аль-Хакима Ат-Термизи проводится в следующих ведущих исследовательских центрах и высших учебных заведениях, в частности, в школе Восточных и Африканских исследований Лондонского университета SOAS (Великобритания), Университете Индиана (США), Университете Жана Мулена Лиона III (Франция), Утрехтском университете (Нидерланды), Гарвардском университете (США), Мичиганском университете(США), Стамбульском университете (Турция), Франкфуртском университете (Германия).

Подробно изучена жизнь, труды аль-Хакима ат-Термизи и его роль в развитии суфизма, а также проанализирован список работ учёного, теория валидности, эпистемология и внутренние духовные основы а также влияние на Ибн Араби и аль-Газали (школа Восточных и Африканских исследований Лондонского университета SOAS (Великобритания)); «Будувву Шаан Абу Абдулла» аль-Хакима ат-Термизи как первый пример духовной автобиографии в классической литературе, а также в исследовании анализируются жизнь, деятельность и духовное наследие ученого (Университет Индианы, США); несколько работ учёного были переведены, и

исследования были сосредоточены на интеркультурных интерпретациях Корана, классифицируя суфийское учение о взаимоотношениях между религиями (Жан Мулен университет Лиона III, Франция); комментируются последние исследования наследия учёного, анализируется его работа «Навадир Аль-метод» (Утрехтский университет, Нидерланды); понятие «мудрости» ат-Термизи была проанализирована в сравнении с другими мыслителями, связав ее с эпистемологическими понятиями, такими как «наука», «просвещение», «разум» и «богословие» (Гарвардский университет, США); теория святости учёного, гносеология (просветительство), понятия «святой» и «мудрость» были классифицированы, и в ней были проанализированы работы учёного «Сират Аль-авлия», «Навадир Аль-метод» и «Марифат уль-асрар» (Мичиганский университет, США); Известно, что сохранилось более 80 работ Хакима Термизи, а также опубликованы его работы «Ал-акл вал-хаво» («разум и высокомерие»), «Ар-радд ала-ар-рафиза» («отрицание Рофизии») (Стамбульский университет, Турция); анализируются жизнь ат-Термизи, его труды, рукописи, а также творения человека, этапы жизненного пути, природа и ее члены, понятия похоти, духа, разума и восприятия, души (Франкфуртский университет, Германия).

Исследования, направленные на совершенствование духовно-нравственного воспитания учащихся на основе учения аль-Хакима ат-Термизи, являются одним из актуальных направлений современной педагогической науки, исследовательская работа ведется по следующим приоритетным направлениям: такие идеи Учёного как «воспитание души», «единство науки и практики», «очищение похоти контроль» и формирование сознательных моральных представлений; разработка педагогической концепции духовно-нравственного воспитания на основе данного учения, гармонизация ее с компетентностным подходом и создание системы национально-духовных компетенций; разработка образовательных технологий, в том числе рефлексивных тренингов, методов анализа этических ситуаций и самооценки на основе взглядов аль-Хакима ат-Термизи; разработка методов повышения духовного иммунитета и нравственной культуры в цифровой образовательной среде. формирование, а также определение критериев оценки эффективности воспитательной работы; исследования, направленные на развитие духовно-нравственного воспитания учащихся на основе учения аль-Хакима ат-Термизи совершенствование современной системы образования путем гармонизации теории и практики.

Степень изученности проблемы. Научное наследие аль-Хакима ат-Термизи было исследовано учеными нашей республики, среди которых Э.Ртвеладзе, М.Хасаний, Г.Джураева, Ж.Омонтурдиев, Ш.Бобохонов, А.Ирисов, Ш.Сафаров, Т.Аннаев, С.Турсунов, А.Исаев, С.Эргашева, О.Исаев, А.Холмирзаев, М.Азимов, М.Кенжабек, Х.Хомидий, А.Абдуллаев, Б.Муртазаев, Р.Абдуллаев, З.Чориев, Ж.Мирзо, У.Уватов, З.Исокова, И.Усмонов, К.Кадыров, А.Самиев, А.Кадырова, Л.Хайитов. Особое значение для популяризации творчества ученого имеет перевод его трудов на

узбекский язык, осуществленный шейхом М.Юсуфом, А.Шоший, А.Турсуновым, Ж.Чутматовым.

Ученые из СНГ, такие как М.Е.Массон, В.В.Бартольд, А.А.Семенов, Г.А.Пугаченкова, З.А.Аршавская, уделяли большое внимание изучению научного и духовного наследия аль-Хакима ат-Тирмизи, проводя исследования жизни и творчества мыслителя, а также его памятников.

Зарубежные ученые, включая А.Арберри, П.Нвиа, А.Алий, С.Свири, С.Дажони, Н.Хир, А.Палмер, Б.Радтке, Ж.Кане, Л.Массиньон, Й.Маркует, Х.Фуад, Г.Гобиллот, А.Фурат, У.Яхья, Х.Заудан, М.Джуюший, А.Умар, В.Ахмад, Б.Фаттох, Д.Книш, И.Худоёр опубликовали результаты многотомных трудов, диссертаций, научных статей и других исследовательских работ, основанных на изучении научного наследия ученого.

Многие научно-исследовательские работы по изучению научного наследия аль-Хакима ат-Термизи проводились преимущественно в области античности, историографии, переводоведения, литературоведения, востоковедения и мистики, однако совершенствование педагогической системы духовно-нравственного воспитания учащихся средствами учения аль-Хакима ат-Термизи научно-теоретически не исследовано полностью.

Связь исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором выполнялась диссертация. Исследовательская работа выполнена в соответствии с научно-исследовательским планом «Направление 3.3. Развитие науки и инновационная трансформация» Стратегии развития Термезского государственного университета на 2025-2027 годы, пункт 2, в рамках проекта «Направление научных исследований на решение региональных и отраслевых проблем».

Цель исследования является в разработке теоретических и практических предложений и рекомендаций по совершенствованию педагогической системы духовно-нравственного воспитания учащихся посредством учения аль-Хакима ат-Тирмизи.

Задачи исследования:

выявление содержания духовно-нравственной компетентности на основе учения аль-Хакима ат-Термези;

педагогическая интерпретация внутреннего мира личности на основе учения Аль-Хакима ат-Термези теория этикета, уточнение компонентов, относящихся к силе души и похоти;

совершенствование методики духовно-нравственного воспитания на основе учения Аль-Хакима ат-Термези;

уточнение акмеологических этапов системы наставник-ученик в учении Хакимия;

совершенствование дидактической модели духовно-нравственного воспитания на основе наследия аль-Хакима ат-Термези.

В качестве объекта исследования было определено совершенствование педагогической системы нравственно-этического

